

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”  
KAFEDRASI**

*Qo‘lyozma huquqida*

UDK: 339.13

**MAMATOV MA‘RUFJON ASATILLO O‘G‘LI**

**KORXONA FAOLIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR  
ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH**

70310106 – “Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari”

mutaxassisli bo‘yicha

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**PhD, dosent v.b.**

**Abdusalomov Abdusamadjon Baxodirovich**

**TOSHKENT-2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

28 -sonli bayonnoma “ 27 ” 04 2023 y.

Kafedra mudiri: Abdullayev M.K.



23.05.23

imzo

sana

Ilmiy rahbar: Abdusalomov A.B.




23.05.23

imzo

sana

Talaba: Mamatov M.A.




23.05.23

imzo

sana

### “Himoyaga tavsiya etiladi”

“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasida

mudiri, dots. M.K. Abdullayev 

“ 31 ” 05 2023 yil

Himoya 2023 yil “ 31 ” 05 soat 10.00 da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo‘lib o‘tadi.

## ANNOTATSIYA

Korxonani raqamlashtirish zamonaviy ishlab chiqarish usullariga asoslangan holda texnologik jarayonlarni va boshqaruvning barcha darajalarida qaror qabul qilish jarayonlarini boshqarish sifatini keskin o'zgartiradi va korxonada faoliyati samaradorligi va barqarorligini oshirish uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalarini raqamli transformatsiya jarayoni bir qancha o'ziga hos xususiyatlarga ega bo'lib ushbu jarayonni to'g'ri tashkil qilish, korxonada uchun kerakli strategiyani ishlab chiqish ko'p jihatdan uning faoliyatini samarali va uzluksiz tashkillashning asosiy shartlaridan biridir. Shu sababli ushbu tadqiqot mavzusini dolzarb mavzulardan biri deb bema'lol aytish mumkin. Ilmiy ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, Respublika sanoat korxonalarini xususan Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar "Shaxzoda Baraka qo'rg'on" MCHJ ni raqamli texnologiyalar tahlili usullari yordamida o'rganildi. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida korxonalarda raqamli texnologiyalar bilan ishlashda duch keladigan muammolar bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, ERP, Big Data, blokcheyn, sun'iy intellekt, Buyumlar internet(IoT), 3D texnologiyalari, Back-ofis, Front-ofis, EasyTrade.

## ANNOTATION

Digitalization of the enterprise, based on modern production methods, dramatically changes the quality of management of technological processes and decision-making processes at all levels of management and is one of the most important factors for increasing the efficiency and stability of the enterprise's activities. The process of digital transformation of industrial enterprises has several peculiarities, the correct Organization of this process, the development of the necessary strategy for the enterprise is in many ways one of the main conditions for the effective and uninterrupted Organization of its activities. For this reason, the topic of this study can be safely said to be one of the relevant topics. To increase the practical importance of scientific work, the Republic's industrial enterprises were studied using methods of analysis of digital technologies, in particular, the Samarkand region of the city of Kattakurgan MCHJ "Shahzoda Baraka Kurgan". Based on the data studied and analyzed, scientifically and practically substantiated conclusions, proposals and recommendations were developed on the problems faced by enterprises when working with digital technologies.

Keywords: digital transformation, ERP, Big Data, Blockchain, Artificial Intelligence, Internet of Things (IoT), 3D technologies, Back office, Front office, EasyTrade.

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yhati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro‘yhati.....	8
Keltirilgan qisqartmalar.....	9
<b>KIRISH.....</b>	<b>10</b>
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	11
Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	12
Tadqiqotning asosiy muammolari.....	12
Tadqiqot obyekti va predmeti.....	13
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	13
Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	13
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	14
<b>I-BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>16</b>
1.1 Kirish.....	16
1.2 Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	17
1.3 Mavzuga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	21
1.4 Xulosa.....	24
<b>II-BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....</b>	<b>26</b>
2.1 Ma‘lumotlarni to‘plash jarayoni.....	26
2.2 Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	26
2.3 Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	27

2.4	Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	27
2.5	Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	28
<b>III-BOB.</b>	<b>TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>29</b>
3.1	Korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish xususiyatlari.....	29
3.2	Korxonalar faoliyatida raqamli texnologiyalar taxlili.....	38
3.3	EasyTrade dasturini tadbiq etish orqali savdo jarayonlarini optimallashtirish.....	51
<b>XULOSA.....</b>	<b>.....</b>	<b>60</b>
Xulosa va takliflar.....	.....	60
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.....</b>	<b>.....</b>	<b>62</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>.....</b>	<b>64</b>

## KIRISH

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichida zamonaviy raqamli texnologiyalar ijtimoiy farovonlik o‘shirishini belgilovchi asosiy ishlab chiqarish resursi sifatida qaralmoqda. Tashkilotlar va birinchi navbatda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini tomonidan zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan foydalanish ularning raqamli iqtisodiyotda samarali ishlashining eng muhim shartidir.

Korxonani raqamlashtirish zamonaviy ishlab chiqarish usullariga asoslangan holda texnologik jarayonlarni va boshqaruvning barcha darajalarida qaror qabul qilish jarayonlarini boshqarish sifatini keskin o‘zgartiradi va korxonaning faoliyati samaradorligi va barqarorligini oshirish uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalarini raqamli transformatsiya jarayoni bir qancha o‘ziga hos xususiyatlarga ega bo‘lib ushbu jarayonni to‘g‘ri tashkil qilish, korxonaning uchun kerakli strategiyani ishlab chiqish ko‘p jihatdan uning faoliyatini samarali va uzluksiz tashkillashning asosiy shartlaridan biridir.

Prezidentimizning “Raqamli O‘zbekiston - 2030” yillarga mo‘ljallangan dasturida iqtisodiyotning real sektorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish, korxonaning ta‘minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish, sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, robotlashtirish, “Buyumlar interneti”, “sun‘iy intellekt” kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027-yilga kelib, apparat qismini esa 2030-yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliyashtirish kabi masalalarni ijrosini ta‘minlash nazarda tutilgan<sup>1</sup>.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Ma‘lumki, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot qo‘shimcha qiymat

---

<sup>1</sup> “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Prezident farmoni.